01-170
24.05.2022.

"TASDIQLAYMAN"
O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vaziri
__________ B. Saidov
"____" __________ 2022-yil

**O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va uning hududiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2022-2023-yillarga mo'ljallangan davlat dasturining ijrosini ta'minlash yuzasidan**
**CHORA-TADBIRLAR REJASI**

*(Asos: O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosarining 2022-yil 16-maydagi 12/1-1111-son topshirig'i)*

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmi | Muddati | Mas'ul ijrochilar | Vazirlikdan mas'ul |
|---|---|---|---|---|---|
| **I. Davlat xaridlari sohasida "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirish yuzasidan 2022-2023-yillarda mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" bo'yicha** | | | | | |
| **1 (3)** | Davlat xaridlarida "komplayens nazorat" tizimini takomillashtirish | "Komplayens nazorat" tizimi xodimlarining zarur malaka ko'nikmalariga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan o'quv mashg'ulotlar tashkil qilish.<br>"Komplayens nazorat" tizimi samaradorligini baholovchi reyting joriy qilish. | 2022-2023-yillar | Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi,<br><br>Manfaatdor vazirlik va idoralar | Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens-nazoratini amalga oshirish sho'basi (L.Saliyev)<br>Davlat xaridlari bo'limi (Sh.Eshnazarov) |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **2 (28)** | Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi ishchi organini (korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi) davlat organlari, vazirliklar va idoralarning ma'lumotlar bazasidan foydalanishga imkon yaratish. | Doimiy masofaviy monitoringni yo'lga qo'yishni ta'minlash maqsadida elektron axborot tizimlari va resurslarga ulanishni tashkil qilish. | 2022-yil 2-3-chorak | Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi,<br><br>Manfaatdor vazirlik va idoralar | Ta'limni raqamlashtirish boshqarmasi IT faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (S.Mo'minov)<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens-nazoratini amalga oshirish sho'basi (L.Saliyev) |
| **II. Davlat organlari va tashkilotlarda, mahalliy hokimliklarda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bo'yicha "Yo'l xaritasi" yuzasidan** | | | | | |
| **1 (1)** | Xalq ta'limi sohasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish ishlarini amalga oshirish. | Xalq ta'limi sohalaridagi mavjud korrupsiya omillarini tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.<br>Xalq ta'limi muassasalariga xodimlarni ishga qabul qilish, ularga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni to'lash, Davlat xaridlarini amalga oshirishda suiiste'molchilik, mablag'larni talon-taroj qilish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yish kabi holatlarning oldini olish choralarini ko'rish.<br>Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari bilan korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Bosh prokuratura o'rtasida samarali hamkorlikni hamda aniqlangan qonun buzilishi holatlari | 2022-yil may<br><br>2022-yil sentabr-noyabr<br><br>Doimiy | Xalq ta'limi vazirligi<br><br>Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi,<br><br>Bosh prokuratura | Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens-nazoratini amalga oshirish sho'basi (L.Saliyev)<br>Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (L.Magay)<br>Davlat xaridlari bo'limi (Sh.Eshnazarov)<br>Moliya departamenti (I.Siradjev) |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | yuzasidan tezkor ma`lumotlar almashuvini yo‘lga qo‘yish. | | | |
| **2 (29)** | Ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, internet tarmog‘ida e’lon qilingan korrupsiyaga oid xabarlarga zudlik bilan munosabat bildirish tartibini yanada takomillashtirish. | Ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, internet tarmog‘ida e’lon qilingan korrupsiyaga oid xabarlarni o‘rganish uchun zudlik bilan tegishli tarmoqlarga taqdim qilish.<br>O‘rganish natijalari bo‘yicha munosabat bildirish va korrupsiya holatlarini oldini olish choralarini ko‘rish. | Doimiy | Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi<br><br>Bosh prokuratura<br><br>Manfaatdor vazirlik va idoralar | Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo‘limi (L.Rustamova)<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens-nazoratini amalga oshirish sho‘basi (L.Saliyev)<br>Yuridik bo‘lim (M.Miraxmedov) |

**Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazoratini amalga oshirish sho‘basi mudiri** **L.Saliyev**